



## **KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI KAR O'QUVCHILARGA OG'ZAKI NUTQNI IDROK ETISHNI O'RGATISH TEXNOLOGIYALARI**

Rahimova Adolat

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti magistranti

### **Annotatsiya:**

Mazkur maqolada, kar o'quvchilarga og'zaki nutqni idrok etishni o'rgatish texnologiyalari haqida tushuncha beradi. Kichik maktab yoshidagi kar o'quvchilar uchun og'zaki nutqni tushunish qobiliyatini rivojlantirish turli ta'lim usullari va texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi.

**Kalit so'zlar:** kar o'quvchilar, og'zaki nutq, idrok etish, maxsus ta'lim texnologiyalari, ta'lim metodlari, kichik maktab yoshi, nutqni rivojlantirish.

**Ключевые слова:** глухие учащиеся, устная речь, восприятие, специальные образовательные технологии, методы обучения, младший школьный возраст, развитие речи.

**Key words:** deaf students, oral speech, perception, special education technologies, educational methods, junior school age, speech development.

Kichik maktab yoshidagi kar o'quvchilar uchun og'zaki nutqni idrok etish qobiliyatini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Nutqni tushunish — muloqotning asosiy qismi bo'lib, o'quvchilarning umumiy rivojlanishi va ta'lim jarayonida muvaffaqiyat qozonishlari uchun muhimdir. Ushbu yoshdagi bolalar uchun og'zaki nutqni idrok qilish o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, unga erishish maxsus metodik yondashuvlar va texnologiyalarni talab etadi.

Kar o'quvchilar bilan ishlashda ularning nutqni tushunish qobiliyatini oshirish uchun qo'llaniladigan metod va texnologiyalar tahlil qilinadi. Ushbu maqola kar o'quvchilarga og'zaki nutqni idrok etish texnologiyalari, pedagogik va psixologik yondashuvlar hamda samarali usullar haqida ma'lumot beradi. Nutqni idrok etishni



o'rgatishda tovushli, vizual, teginish asosidagi texnologiyalar va maxsus darsliklardan foydalanish ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli natijalarga olib keladi.

### **Kar o'quvchilar uchun nutqni idrok etishning ahamiyati**

Kar o'quvchilarga og'zaki nutqni idrok etishni o'rgatish ularning kundalik hayotda muloqot qilish qobiliyatini oshiradi va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu mahorat kar o'quvchilar uchun tilshunoslik va so'z boyligini oshirish, hissiy-intellektual o'sishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.[1]

### **Ta'lim texnologiyalari va metodlarning o'rni**

Kar o'quvchilar uchun og'zaki nutqni idrok qilish jarayonini samarali tashkil qilish uchun vizual va teginish asosidagi metodlar, maxsus darslik va audio-texnologiyalardan foydalaniladi. Darslarda multimediya vositalari, maxsus dasturlar va piktogrammalar kabi texnologiyalar yordamida ularning tushunchasini oshirish maqsadida ishlatiladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan ishlashda muhim yondashuvlardan biri vizual stimul asosidagi yondashuvdir. Kar o'quvchilarning tushunish darajasini oshirish uchun yuz ifodalarini, imo-ishoralarni, va boshqa vizual belgilarni kiritish kerak. Shuningdek, bolaning so'z boyligi va tilni idrok etish qobiliyatini oshirish uchun u bilan muntazam aloqani yo'lga qo'yish kerak.

### **Maxsus darsliklar va qo'llanmalarning ahamiyati**

Maxsus tayyorlangan o'quv qo'llanmalari, piktogramma asosidagi materiallar va og'zaki nutqni idrok etishni o'rgatish uchun moslashtirilgan darsliklar kar o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi muhim qo'llovchilari hisoblanadi. Ulardan foydalanish bolalarning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Davlatimizda ta'lim va tarbiya tizimini yanada rivojlantirish va ilm-fan sohasini jadallashtirish maqsadida davlat rahbari tomonidan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev "Ma'naviyat maktabdan boshlanadi. Maktablarda ta'lim sifatiga qanday e'tibor bersak, ma'naviyatga ham shunday e'tibor berishimiz kerak," deya ta'limdagi ma'naviy tarbiyaning ahamiyatini ta'kidlagan edi.



## International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16<sup>th</sup> June, 2025

Boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab, bolalarning nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish, og'zaki nutqini rivojlantirish, va ularni ko'rgan, eshitgan voqea-hodisalar haqida erkin fikr yuritib, esdaliklarini ifodalashga o'rgatish muhim hisoblanadi. O'z fikrini aniq va tushunarli ifodalash hamda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish orqali o'quvchilar nutqiy muloqotda ishtirok etadilar, fikr almashadilar. Inson uchun nutq orqali fikr ifodalash qobiliyati juda muhimdir. Ravon va tushunarli nutq orqali insonning fikrlari aniq ifodalanadi va shu bilan birga muloqot yoqimli bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fayzullayeva, S. (2021). Kar bolalar ta'limida yangi texnologiyalardan foydalanish. Toshkent: "Xalq ta'limi" nashriyoti.
2. Soliyev, B. (2019). Nutqni idrok etish metodlari va ularni rivojlantirish texnologiyalari. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
3. Qodirov, Z. (2020). O'zbekiston maktablarida maxsus ta'limning o'ziga xos jihatlari. Toshkent: Ta'lim texnologiyalari instituti.
4. Shermuhammedova, M. (2018). Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda og'zaki nutqni rivojlantirishning muhim jihatlari. Nukus: Qaraqalpoq davlat universiteti nashriyoti.
5. World Federation of the Deaf. (2022). Education Rights of Deaf Children.